

**AT “Aloqabank” aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi
(19.06.2026 y.)**

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi 2026-yil 19-iyun kuni, soat 10:00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o‘tkazildi.

Yig‘ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi.

Yig‘ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a‘zolari, Bosh bankning tarkibiy bo‘linma boshliqlari ishtirok etdi.

Yig‘ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo‘yildi:

- 1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.**
- 2. AT “Aloqabank”ning 2025-yil ish faoliyati yakunlari bo‘yicha bank Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash.**
- 3. AT “Aloqabank”ning 2025-yil ish faoliyati yakunlari hamda 2026 yildagi ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi bank Boshqaruvi Raisi hisobotini tasdiqlash.**
- 4. AT “Aloqabank”ning 2025 yil ish faoliyati yakuni bo‘yicha Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik hisoboti va xulosasini tasdiqlash.**
- 5. AT “Aloqabank”ning yillik hisoboti bo‘yicha buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash.**
- 6. AT “Aloqabank”ning 2025-yil ish faoliyati yakuni bo‘yicha olgan sof foydasini taqsimlash.**
- 7. AT “Aloqabank”ning 2026-yil ish faoliyati yakuni bo‘yicha Xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash uchun auditorlik tashkilotini tanlash va uning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash.**
- 8. AT “Aloqabank” tomonidan keyingi aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda affillangan shaxslar bilan kelgusida tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni oldindan ma‘qullash.**
- 9. AT “Aloqabank”ning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash.**
- 10. AT “Aloqabank”da 2025-yil yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko‘rib chiqish.**

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar soni 5 848 ta, ularga tegishli bo‘lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 2 829 193 296 965 donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni 2 794 919 008 981 tani tashkil etdi. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning 98,79 foizini tashkil etdi.

Umumiy yig‘ilish o‘tkazish uchun kvorum mavjud deb hisoblandi.

Ovoz berish jarayoni elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) orqali amalga oshirildi. Bunda ro‘yxatdan o‘tgan 17 nafar aksiyadorning 2 nafari (ularga tegishli ovozlar soni 1 649 032 918 440 donani tashkil etadi) ovoz berishda yozma byulletenlardan foydalandi. Ushbu aksiyadorlar tomonidan kun tartibiga kiritilgan masalalarga berilgan ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) platformasiga kiritildi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1.	AT «Aloqabank» aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash	100,00	2 794 919 008 981	-	-	-	-
2.	AT «Aloqabank»ning 2025-yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha bank Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash	100,00	2 794 919 008 981	-	-	-	-
3.	AT «Aloqabank»ning 2025-yil ish faoliyati yakunlari hamda 2026-yildagi ustuvor vazifalari to'g'risidagi bank Boshqaruvi Raisi hisobotini tasdiqlash	100,00	2 794 919 008 981				
4.	AT «Aloqabank»ning 2025-yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik hisoboti va xulosasini tasdiqlash	100,00	2 794 919 008 981				
5.	AT «Aloqabank»ning yillik hisoboti bo'yicha buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash	99,999997	2 794 918 926 780	0,000003	82 201		
6.	AT «Aloqabank»ning 2025-yil ish faoliyati yakuni bo'yicha olgan sof foydasini taqsimlash	99,999986	2 794 918 629 895	0,000003	82 201	0,000011	296 885
7.	AT «Aloqabank»ning 2026-yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash uchun auditorlik tashkilotini tanlash va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash:	100,00	2 794 919 008 981	-	-	-	-
8.	AT «Aloqabank» tomonidan keyingi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda affillangan shaxslar bilan kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni oldindan ma'qullash	99,999999	2 794 918 732 096	-	-	0,000001	276 885
9.	AT «Aloqabank»ning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash	100,00	2 794 919 008 981	-	-	-	-
10.	AT «Aloqabank»da 2025-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish	100,00	2 794 919 008 981	-	-	-	-